



FAVQULODDA VAZIYATLAR VA ULARDA TO'G'RI HARAKAT QILISH.

*Farg'ona viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi boshlig'i
podpolkovnik*

Yunusov Abduvoxid Odiljonovich.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlar to'g'risida ma'lum qilingan, ularda to'g'ri harakat qilish bo'yicha tushunchalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Favqulodda vaziyatlar, geologic, gidrometeorologik, epidemiologik, epizootik va epifitotik, atrof-muhit, atmosfera, radiatsiya.*

Favqulodda vaziyat – odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'ligi yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoiti izdan chiqishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan avariya, halokat, xavfli tabiiy hodisa yoki boshqa tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyat. Har bir favqulodd vaziyat ro'y berish joyi, sababi, ko'lamiga, u bilan bog'liq bo'lgan moddiy zarar va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biri favqulodda vaziyatlar, talofatlar, avariylar, falokatlar va turli-tuman ofatlarning hosil bo'lishi va rivojlanishini bashoratlash, oldindan davlat organlari va aholini yaqinlashib kelayotgan ofatdan ogoh etishdan iboratdir. Favqulodda vaziyatlar ularning vujudga kelish sabablariga (manbalariga) ko'ra tasnif qilinadi va ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlar miqdoriga va ko'lamiga (hududlar chegaralariga) qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegarali turlariga bo'linadi.

Tabiiy tushdagi favqulodda vaziyatlar

1. Xavfli geologik hodisalar:

-odamlar o'limiga, ma'muriy ishlab chiqarish binolarini, texnologik asbob uskunalarining, energiya ta'minoti, transport kommunikatsiyalari va infrastruktura tizimlarining, ijtimoiy yo'nalishdagi binolarning va uy-joylarning turlicha darajada buzilishiga, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyatining izdan chiqishiga olib kelgan zilzilalar;

-odamlar o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan va xavfli hududdan odamlarni vaqtincha ko'chirishni yoki xavfsiz joylarga doimiy yashash uchun ko'chirishni talab qiluvchi yer ko'chishlari, tog' o'pirishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar.

2. Gidrometeorologik xavfli hodisalar:

-odamlar o'limiga, aholi punktlarini, sanoat va qishloq xo'jalik ob'ektlarini suv bosishiga, infratuzilmalar va transport kommunikatsiyalari, ishlab chiqarish va odamlar hayot faoliyati buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlari o'tkazilishini talab qiladigan suv toshqinlari, suv o'pirishlari va sellar;



-aholi punktlarini, sanatoriy, dam olish uylaridagi, sog'lomlashtirish lagerlaridagi odamlarning, turistlarning va sportchilarning jarohatlanishiga va o'limiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar.

3. Favqulodda epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar:

-o'lat, vabo, sarg'ayma, isitma kabi siyrak uchraydigan kasalliklarni keltirib chiqargan alohida xavfli infeksiyalar;

-odamlarda uchraydigan yuqumli kasalliklar rikketsiyalar-epidemik toshmalar, terlama, Bril kasalligi, Ku-isitma;

-zoonoz kasalliklar-Sibir yarasi, quturish;

-virusli infeksiyalar –OITS;

-epidemiya-alohida xavfli infeksiyalarga tegishli bo'lmagan, yuqish manbai bitta yoki yuqish omillari bir bo'lgan odamlarning guruh bo'lib yuqumli kasallanishi, bir aholi punktida -50 kishi va undan oshiq;

-aniqlanmagan etiologiya bilan guruh bo'lib kasallanish -20 kishi va undan oshiq;

-tashhisi aniqlanmagan bezgak kasalligi- 15 kishi va undan oshiq;

-o'lim yoki kasallanish darajasi o'rtacha statistik darajadan 3 baravar va undan oshiq bo'lgan vaziyat;

-zaharli moddalar bilan zaharlanish- jabrlanganlar soni -10 kishi, vafot etganlar soni – 2 kishi va undan oshiq;

-oziq-ovqatdan ommaviy zaharlanish –jabrlanganlar soni – 10 kishi, vafot etganlar soni 2 yoki undan oshiq;

-epizootiya – hayvonlarning umumiy qirilib ketishi yoki kasallanishi;

-epifitotiya- o'simliklarning ommaviy nobud bo'lishi.Ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar

1.Quruqlik (tuproq, yer osti)ning holati o'zgarishi bilan bog'lik vaziyatlar:

-halokatli ko'chkilar – foydali qazilma konlarni qazib chiqarish chog'ida yer ostiga ishlov berish va insonning boshqa faoliyati natijasida paydo bo'luvchi yer yuzasining o'pirilishi, siljishi;

-tuproq va yer ostining sanoat tufayli kelib chiqqan toksikantlar bilan ifloslanishi, og'ir metallar, neft mahsulotlari, shuningdek iqtisodiyot tarmoqlaridagi ishlab chiqarishda odamlarning sog'ligi uchun xavf soluvchi konsentratsiyalarda qo'llanilgan pestitsidlar va boshqa zaharli ximikatlarni mavjudligi.

2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'lik bo'lgan vaziyatlar:

-havo muhitining quyidagi ingredientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

-oltingugurt dioksid, dioksid va azotli oksid, uglerodli oksid, qurum, chang va odamlar sog'ligiga xavf soluvchi konsentratsiyalarda antropogen tUSDagi boshqa zaharli moddalar;



-katta ko'lamda kislotali zonalar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yog'ilishi;

-radiatsiyaning yuqori darajada bo'lishi.

3. Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'lik vaziyatlar:

-yer yuzasi va yer osti suvlarining sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi oqavalari: neft mahsulotlari, odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan tarkibida og'ir metallar, har xil zaharli ximikatlar bor bo'lgan chiqindilar va boshqa zaharli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi;[8]

-binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning yemirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan sizot suvlar darajasining oshishi;

-suv manbalari va suv olish joylarining zaharli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvining keskin yetishmasligi.[7]

Lokal, mahalliy, respublika a transchegarali favqulodda vaziyatlar

1.Lokal favqulodda vaziyatga vaziyat natijasida 10 dan ortiq bo'lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoiti buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat sodir bo'lgan kunda eng kam ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiq bo'lmaganni tashkil etadigan hamda favqulodda vaziyat zonasi ishlab chiqarish ob'ekti yoki ijtimoiy maqsadli ob'ekt hududi tashqarisiga chiqmaydigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.

2. Mahalliy favqulodda vaziyatga favqulodda vaziyat natijasida 10 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p bo'lmagan odam jabrlangan, yoxud 100 dan ortiq, biroq 500 dan ko'p bo'lmagan odamning hayot faoliyati sharoitlari buzilgan, yoxud moddiy zarar favqulodda vaziyat paydo bo'lgan kunda eng kam ish haqi miqdorining 1 ming baravaridan ortiqni, biroq 0,5 million baravaridan ko'p emas, tashkil etadigan favqulodda vaziyat zonasi aholi punkti, shahar, tuman, viloyat hududidan tashqariga chiqmaydigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.[6]

3. Respublika miqyosidagi favqulodda vaziyatga favqulodda vaziyat natijasida 500 dan ortiq odam jabrlangan, yoxud 500 dan ortiq odamning hayot faoliyati buzilgan, yoxud moddiy zarar eng kam ish haqi miqdorining 0,5 million baravaridan ortiqni tashkil etadigan hamda favqulodda vaziyat zonasi viloyat tashqarisiga chiqadigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.

4. Transchegarali favqulodda vaziyatga oqibatlari mamlakat tashqarisiga chiqadigan, yoxud favqulodda vaziyat chet elda yuz bergan va O'zbekiston hududiga daxl qiladigan favqulodda vaziyat tegishli bo'ladi.[5]

O'zbekiston Respublikasida asosan texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan-kimyoviy xavfli ob'ektlarda, energetika tizimlarida, gidrotexnika inshootlarida, sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida, gaz sanoatlarida va transport vositalari bilan bog'lik avriyalar hamda tabiiy turdagi favqulodda vaziyatlar-geologik xavfli hodisalar (zilzilalar, yer ko'chishi, tog' jinslarining ko'chishi, qor ko'chishi) va gidrogeologik xavfli hodisalar (suv toshqinlari, suv to'planishlari, sel)lar



ko'proq uchrab turadi (o'quv qo'llanmasining keyingi boblarida yuqorida qayd etilgan turdagi favqulodda vaziyatlarga kengroq to'xtalib o'tamiz).

Respublikamiz hududlarida uchraydigan tabiiy ofatlarning hosil bo'lishida geofizik, geologik, gidrogeologik, atmosfera va boshqa omillar asosiy o'rinni egallaydi. Ular oqibatida hayot xavfzligi buziladi, insonlar nobud bo'ladi, iqtisodiyot ob'ektlariga turli darajada moddiy zarar yetkaziladi. Tabiiy ofatlarning turlari va yuz berish sabablari.

Tabiiy ofatlar to'g'risida aholi yetarli ma'lumotga ega bo'lishi uchun ularning turlariga alohida to'xtalib o'tamiz.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining maxsus qaroriga muvofiq tabiiy xususiyatga ega bo'lgan favqulodda vaziyatlar quyidagi bo'limlarga bo'linadi:[4]

Zilzila, yer ko'chishi va yer o'pirilishi.

Gidrometrologik: suv toshishi yoki bosishi, sel, qor ko'chkisi, kuchli shamollar, dovullar, jala, yomg'ir.[3]

Jamiyat, texnika, texnologiya va dunyo sivilizatsiyasining taraqqiyotiga qaramasdan dunyo borgan sari tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan zaif bo'lib bormoqda. Tabiiy ofatlar soni esa yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda biz dunyoning ko'p hududlarida turli ko'rinishdagi avariylar, tabiiy ofatlar va texnogen tusdagi ofatlarning sodir bo'lishiga guvoh bo'lyapmiz.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng tashkil etilgan Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalaridan biri ham favqulodda vaziyatlarda aholi hayoti va sog'ligini, moddiy va ma'naviy boyliklarini muhofaza qilishdan iborat.[2]

Tabiiy ofatlar sodir bo'lishi oqibatida zararlanish favqulodda vaziyatlarning quyidagi ko'rinishlarini, ya'ni buzilish, yong'in chiqishi, suv toshqini, turar joy inshootlarining ko'chki, yer o'pirilishi, qor ko'chkisi, sel quyqumlari ostida qolib ketishi va h.k. bilan xarakterlanadi.

Tabiiy ofatlarning eng dahshatlisi zilzila hisoblanadi. Oxirgi 50 yil ichida bo'lib o'tgan kuchli zilzilalar ichida vayronagarchilik va qurbonlar miqyosiga ko'ra Chili, San-Fransisko, Tokio, Ashgabat va Armaniston, Toshkentdagi, Eron va boshqalar ajralib turadi. 1948 yilgi Ashgabat (100 ming odam halok bo'lgan, zilzilaning kuchi 8-9 ball) zilzilasidan keyingi eng dahshatli fojia Spitak zilzilasi nomini (unda 30 ming odam halok bo'lgan) oldi. U 1988 yilning 7 dekabr kuni sodir bo'ldi. Dastlabki kuchli silkinishning o'zida 20 mingli Spitak shahri va uning atrofidagi bir necha qishloqlar butunlay yakson bo'ldi. 200 mingli Leninakan shahrining zamonaviy binolarining yarmidan ko'pi quladi yoki tiklab bo'lmaydigan ahvolga keldi. 120 mingli aholisi bo'lgan sanoat markazi bo'lmish Kirovakan shahri va shahar atrofida joylashgan katta qishloqlari kuchli talofat topdi.[1]

Yaponiyada 2011 yil 11 martda 9 balli kuchli yer qimirlashi ro'y bergan. Uning epitsentri yirik Senday shaxrining markazida joylashgan bo'lib, juda katta ko'lamdagi muhandislik va kommunal inshootlarning vayron bo'lishiga, uy-joylarni



buzilishiga olib keldi. Bu ofat natijasida uylarning buzilgan bo'laklari ostida 30 ming odam nobud bo'lgan va bedarak yo'qolgan, ming-minglab oilalar uy-joysiz qolgan.

1995 yil 27 mayda Rossiya davlatining Neftegorsk shahrida (8 ball kuchlanishga ega bo'lgan o'ta kuchli yer silkinishi sodir bo'ldi. Ma'lumotlarga ko'ra uning oqibatida shahardagi 95 foiz oshiq inshootlar vayron bo'lgan va 1841 nafar fuqaro nobud bo'lgan.

Respublikamiz hududlarida uchraydigan tabiiy ofatlarning hosil bo'lishida geofizik, geologik, gidrogeologik, atmosfera va boshqa omillar asosiy o'rinni egallaydi. Ular oqibatida hayot xavfzligi buziladi, insonlar nobud bo'ladi, iqtisodiyot ob'ektlariga turli darajada moddiy zarar yetkaziladi.

Geofizik omillar - yerning fizik xususiyati (magnit, elektr, gamma faollik, issiqlik va boshq.) natijasida yuzaga keladigan turli noxush vaziyatlar majmuasini sodir etadi.

Geologik omillar - yerning paydo bo'lishi bilan bog'lik bo'lgan va hozirgi vaqtgacha davom etib kelayotgan ichki va tashqi (endogen va ekzogen) kuchlari ta'sirida paydo bo'ladigan xavfli jarayonlarni yuzaga keltiradi.

Gidrogeologik omillar - yer osti va ustidagi suvlar (gidrosfera) ta'sirida bevosita yuzaga keladigan noxush vaziyatlar tushuniladi.

Atmosfera omillari - yerning atmosfera qatlamidagi o'zgarishlar (iqlim, ob-havo, ifloslanish, azon qatlami va boshq.) natijasida xavfli holatlar paydo bo'lishiga olib keladi.

XULOSA:

Respublikamiz hududlarida har to'rtala guruhga taalluqli xavfli halokat va jarayonlar uchrab turadi. Ulardan zilzila, ko'chki, o'pirilish, suv toshqini va sellar nisbatan ko'proq uchraydi. Keyingi vaqtlarda olinayotgan ma'lumotlar, olib borilayotgan tadqiqot ishlari va kuzatuv natijalari yildan-yilga tabiiy ofatlar soni ortib borayotganligini tasdiqlamoqda. Ayniqsa, ko'chki, toshqin va sellar miqdoriy jihatdan yuqori ko'rsatkichni egallab turibdi. Masalan, 1999 yili respublikamizda 600 ga yaqin ko'chki, sel va toshqinlar ro'y bergan bo'lsa, bu raqam 1997 yilga nisbatan 3,5 va 1996 yilga nisbatan 6 barobar ortganligini ko'rish mumkin. Ularning aksariyat qismi Farg'ona, Surxondaryo, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari hududlarida, ya'ni tog'li va tog' oldi hududlarida uchramoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Favqulodda vaziyatlar davlat tizimining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari" (ma'ruza matni) Toshkent, FMI, 2000 yil. [1]
2. "Texnogen favqulodda vaziyatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish" (ma'ruza matni). Toshkent, FMI, 2000 yil. [2]



3. “Tabiiy favqulodlarda vaziyatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish”(ma’ruza matni). Toshkent,FMI, 2000 yil. [3]
4. “ Tinchlik va xarbiy vaqtlarda aholini evakuatsiya (ko’chirish) qilishni tashkil etish”(ma’ruza matni). Toshkent,FMI, 2000 yil. [4]
5. “ Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish”(ma’ruza matni). Toshkent,FMI, 2000 yil. [5]
6. “ Ta’lim tizimida fuqaro muhofazasi sohasi bo’yicha fanlarni o’qitish konsepsiyasi”(ma’ruza matni). Toshkent,FMI, 2001 yil. [6]
7. Ilesova Z.F. “ Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari”(ma’ruza matni). Toshkent,FMI, 2001 yil.[7]
8. Xabibulaev I.X., Trembak V.V. “ Favqulodda vaziyat xavfi tug’ilganda va sodir bo’lganda xabar berish va axborot uzatish mavzusidan”(ma’ruza matni). Toshkent,FMI, 2005 yil.[8]